

ICHKI TURIZMNING RIVOJLANISH MEXANIZMLARI: O'ZBEKISTONDAGI SO'NGGI ISLOHOTLAR VA GLOBAL TENDENSIYALAR

Xasanova Ruksora Rasuljon qizi

mustaqil tadqiqotchi, FarDU

hasanovaruksik2002@gmail.com,

+998904050969

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon turizm sanoatidagi raqobatning kuchayishi va barqaror rivojlanishini ta'minlashda ichki turizm imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalalari tahlil qilingan. BMtning Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda turizmdan tushgan daromad 3,3 trln AQSh dollarini tashkil etgan. O'zbekistonda ham ichki turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" doirasida mahalliy sayyohlar sonini oshirish maqsadida aniq vazifalar belgilab olingan. Bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar soha rivojiga turtki bermoqda. O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari va islohotlar, xususan "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida olib borilayotgan ishlar haqida ma'lumot berilgan. Ichki turizmni rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish, axborot asimmetriyasi muammosini bartaraf etish, mahalliy turistlar ehtiyojlarini qondirish muhim vazifalar sifatida qayd etilgan.

Kalit so'zlar: ichki turizm, iqtisodiy o'sish, mahalliy turistlar, turizm islohotlari, barqaror rivojlanish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, raqobat, sayohat, samaradorlik, tendentsiya.

KIRISH

Jahon turizm sanoatining faoliyati va raqobatining kuchayishi, shuningdek, turizm sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlashda ichki turizm imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalalari muhokama qilindi. Rivojlangan mamlakatlarda mahalliy, ya'ni ichki turizmni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar, shuningdek mahalliy turistlar va tashkilotlarga berilayotgan qo'llab-quvvatlash vositalari iqtisodiy o'sishga salmoqli hissa qo'shmoqda. BMtning Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda turizmdan olingan daromad 3,3 trillion AQSh dollarini tashkil etib, bu global yalpi ichki mahsulotning taxminan 3 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkichni 2019 yildagisi bilan taqqoslaganda, ichki va xalqaro sayohatlar hajmi o'sgani ko'rinadi. Shuningdek, 2024 yilda ishlab chiqilgan maxsus dasturlarning amalga oshirilishi natijasida, xalqaro turizm 2025 yilda pandemiyadan oldingi darajaga to'liq tiklanishi kutiladi.

Asosiy qism

Turistlarning ichki turizmga bo'lgan qiziqishining oshib borishi orqali sohada barqaror o'sishni ta'minlash maqsadida tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahonda mamlakatlarning ichki turizmni rivojlantirishda ilmiy-uslubiy asoslarni takomillashtirishga qaratilgan bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. O'zbekistonda iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, yetakchi tarmoqlarni modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlanishga yo'naltirilgan islohotlar doirasida turizm sohasiga alohida e'tibor qaratiladi. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" davlat dasturi doirasida "Ichki turizm salohiyatini targ'ib qilish orqali 2026 yilgacha O'zbekiston bo'ylab

sayohat qiling' dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 milliondan oshirish" maqsadiga erishish uchun vazifalar o'rganib chiqilgan.

Bu vazifalarni samarali amalga oshirish uchun "ichki turizm" tushunchasining iqtisodiy mazmunini kengaytirish, uni rivojlantirish, shuningdek axborotning nosimmetrik ta'siri natijasida sayohatchilarning mamlakatning turli turizm ob'ektlariga tashrifi jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni oldini olish va ularni tartibga solish orqali ichki turizmni rag'batlantirish muhim sanaladi.

Muhokama va tahlil

O'zbekiston 2016-yildan boshlab turizm sohasida yangi bosqichga qadam qo'ydi, deb aytish mumkin. Haqiqatan ham, mustaqillikka erishgan 1991-yildan so'ng turizm sohasida ilk qadamlar boshlangan bo'lsa-da, keyingi davrda bu soha asosan yopiq bo'lib qoldi. Xavfsizlik sababli xorijiy sayyohlarning O'zbekistonga kirishi cheklangan edi. Ichki turizm ham iqtisodiy qiyinchiliklar sabab, ko'proq oila va qarindosh-urug'chilik aloqalari doirasida hududlar o'rtasida cheklangan harakat bilan chegaralangan edi. Bugungi kunda esa siyosiy islohotlar natijasida chegaralar ochilib, qo'shni mamlakatlar bilan yaxshi munosabatlar yo'lga qo'yilmoqda va iqtisodiyotimiz o'sib bormoqda.

Ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar o'z samarasini bermoqda: 2016 yildan 2023 yilgacha ichki sayyohlar soni 59,5 million nafardan oshdi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda ichki turistlar sonining 2016-2023-yillardagi statistikasi [2]

Yuqoridagi rasmda ko'rinib turibdiki, 2016-dan 2019-yilgacha ichki turistlar soni o'sib borganligi 2020-yilda Covid-19 pandemiyasi hisobiga natija past bo'lmaganligini ko'rishimiz mumkin. Cheklovlar, aholini uydan chiqishga bo'lgan taqiq, transport harakatini to'xtatilishi va turli sabablar bunga misol bo'lishi mumkin.

2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasining ayrim ko'rsatkichlariga qaraydigan bo'lsak, tahlil va prognozlar shuni ko'rsatadiki, ichki sayyohlar 10000 dan 15000 gacha bo'lishi prognoz

qilinmoqda. Joylashtirish vositalari soni (oilaviy mehmon uyi va xostellardan tashqari) 1210 dan 1771 donagacha bo'lishi kutilmoqda.

1-jadval va 2-rasmda keltirilgan tahlil va prognozlar oltita o'lchamdagi ko'rinishda bo'lib, O'zbekistonga tashrif buyurgan chet ellik sayyohlar soni, turistik xizmatlar eksporti (million AQSH dollarida) hisoblangan, ichki sayyohlar soni (ming kishi)da hisoblangan, joylashtirish vositalaridagi soni va joylashtirish vositalaridagi xonalar sonigacha, joylashtirish vositalaridagi o'rinlar soni (ming) etib hisoblangan.

2022–2026 yillar davomida O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xususan joylashtirish vositalarini kengaytirish masalasi milliy turizm konsepsiyasida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Mazkur besh yillik davrda joylashtirish vositalaridagi xonalar sonini oshirish bo'yicha quyidagi maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan.

1-jadval

2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko'rsatkichlari [2]

	Ko'rsatkichlar	2022	2023	2024	2025	2026
1.	O'zbekistonga tashrif buyurgan chet ellik sayyohlar soni (ming kishi)	3711,6	7000,0	7500,0	7959	9392
2.	Turistik xizmatlar eksporti (million AQSH dollari)	1 128,0	1 500,0	1 600,0	1 850,0	2 130,0
3.	Ichki sayyohlar soni (ming sayohat)	10 000	12 000	13 000	15 000	18 000
4.	Joylashtirish vositalari soni (oilaviy mehmon uyi va xosteldan tashqari) (dona)	1 210	1331	1464	1610	1771
5.	Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni (ming)	31,9	35,1	38,6	42,4	46,7
6.	Joylashtirish vositalaridagi o'rinlar soni (ming)	64,2	70,4	77,4	85,2	93,7

2022–2026 yillar davomida O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xususan joylashtirish vositalarini kengaytirish masalasi milliy turizm konsepsiyasida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Mazkur besh yillik davrda joylashtirish vositalaridagi xonalar sonini oshirish bo'yicha quyidagi maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan.


1. Barqaror o'sish tendensiyasi (2022–2025)

2022 yildan 2025 yilgacha bo'lgan davrda xonalar sonida yillik o'rtacha 5% atrofida o'sish kuzatiladi. Bu o'sish mamlakatda mehmonxona biznesiga e'tibor kuchayganini, yangi mehmon uylari, xostellar va kichik mehmonxonalar

qurilayotganini ko‘rsatadi. Shaxsga yo‘naltirilgan xizmat ko‘rsatish sifati va raqobat muhitini yaxshilashga ham katta e‘tibor qaratilgan.

2. Jadal o‘shirish fazasi (2025–2026)

2026 yilda xonalar soni keskin ravishda 85 mingtagacha yetishi rejalashtirilgan, bu esa 40% dan ortiq o‘shirish demakdir. Bu O‘zbekistonda xalqaro turizm oqimini keskin ko‘paytirish, yirik tadbirlar, festivallar, sport musobaqalarini qabul qilish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan. Bunda yirik shaharlar bilan bir qatorda viloyat markazlari va sayyohlik salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarda ham infratuzilmani kengaytirish ko‘zda tutilgan.



2-rasm. 2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasining joylashtirish vositalaridagi xonalar va o‘rinlar sonining maqsadli ko‘rsatkichlar soni (mingda)[2]

O‘zbekiston Respublikasida 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan turizmni rivojlantirish konsepsiyasi doirasida joylashtirish vositalaridagi xonalar soni bo‘yicha belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar mamlakatning turizm salohiyatini yuksaltirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va turistlarga xalqaro standartlarga mos shart-sharoitlar yaratishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Bu tendensiya mamlakatning Markaziy Osiyodagi yetakchi turistik markazga aylanishida muhim qadamlardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan turizm islohotlari nafaqat ichki rivojlanishni ta‘minlamoqda, balki xalqaro tashkilotlar tomonidan e‘tirof etilmoqda. Bu esa O‘zbekistonning global turizm maydonida o‘z o‘rniga ega davlat sifatida tan olinayotganini anglatadi. Xususan, “The Wanderlust World Guide Awards” tomonidan mamlakatimizga “Dunyoning turizm sohasida eng tez rivojlanayotgan davlati” unvoni berilgani, “Grandvoyage Agencia de Viajeros” agentligi tomonidan esa 2019-yilda “Eng yaxshi rivojlanayotgan sayyohlik yo‘nalishi” deb topilgani – bu yo‘nalishga bo‘lgan e‘tiborning yuqoriligidan dalolat beradi. Turli xalqaro reytinglar va sayyohlik platformalarida yuqori o‘rinlarni egallab borayotgani ham aynan shu sohadagi tizimli siyosatning samarasi. Ayniqsa, O‘zbekistonning UNWTO reytingida “Turizm sohasi eng jadal rivojlanayotgan davlatlar” orasida to‘rtinchi o‘rinni egallashi Prezidentimiz rahbarligida olib borilayotgan strategik islohotlarning xalqaro miqyosdagi natijasi

sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Xalqaro reytinglar yana bir qancha o'lchamlarda mamlakatimiz turizm salohiyatini baholadi, bularga 2021-yil 6-fevralda UNWTO ro'yxati orasida e'lon qilingan bo'lib dunyoning turizm sohasida eng tez rivojlanayotgan davlatlar orasida O'zbekiston reytingda 4-o'rinni egallagan[3].

Mazkur rasmda O'zbekiston Respublikasining xalqaro turizm reytinglaridagi o'rni tahlil qilinadi. Jumladan, 2021-yil 6-fevralda BMT Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) tomonidan e'lon qilingan ro'yxatda O'zbekiston “Dunyoning turizm sohasida eng tez rivojlanayotgan davlatlari” orasida 4-o'rinni egallagani qayd etilgan. Ushbu natija mamlakatda turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning xalqaro miqyosda yuqori baholanayotganidan dalolat beradi. Infografika O'zbekistonning turizm salohiyati, global tan olinish darajasi hamda sektorning jadal rivojlanish jarayonlarini ko'rsatib beradi. Bu holat xalqaro turizm tashkilotlari tomonidan olib borilayotgan monitoring va baholashlar asosida mamlakatning ijobiy imijini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, O'zbekiston turizm siyosatining samaradorligi va strategik yondashuvlari global turizm industriyasida o'z aksini topmoqda.

Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasida ichki turizmni rivojlantirish yo'lida Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbusi bilan bir qator muhim huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etildi. Xususan, 2018-yil 7-fevraldagi PQ-3514-sonli qaror, 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-sonli farmon va 2022-yil 30-apreldagi “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-232-sonli qaror ichki turizm salohiyatining yuksalishida muhim bosqich bo'ldi.

2-jadval.

Xalqaro ekspertlar tomonidan mamlakatimizda olib borilayotgan turizm siyosati ilg'or tajriba sifatida[2]

Dunyoning turizm sohasida eng tez rivojlanayotgan davlatlari orasida	«Sayyohlar xavfsizligi indeksi»	«Jozibador turistik yo'nalishlar»	«2021-yilda turizm eng tez rivojlanayotgan mamlakat»
2020-yil 6-fevralda UNWTO ro'yxatida orasida e'lon qilingan bo'lib	Amerika jamoatchilik fikri instituti	Titan Travel - Buyuk Britaniyadagi eng yirik sayyohlik operatori jozibadorligi	Buyuk Britaniyaning nufuzli «The Independent» gazetasi
O'zbekiston reytingda 4-o'rinni egalladi.	O'zbekiston sayyohlar xavfsizligi bo'yicha dunyoda 9-o'rinni egalladi.	O'zbekiston 20 mamlakat qatoriga kirdi.	O'zbekiston 27,3 foiz o'sish bilan 4-o'rinni egalladi.

Mazkur hujjatlarda mamlakatimiz iqtisodiyotida turizm sohasining strategik ahamiyatini oshirish, ichki turizm xizmatlarini ko'paytirish va ularni turlicha yo'nalishlarda rivojlantirish, aholining sayohatga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirish, xizmatlar sifatini yaxshilash, ularning raqobatbardoshligini oshirish kabi vazifalar belgilab berilgan. Shu bilan birga, tadbirkorlik sub'yektlariga qulay shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish va aholining bandligi hamda daromad manbalarini kengaytirish bo'yicha kompleks dasturlar ishlab chiqilgan.

Masalan, 2022-yil 1-iyundan "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturi doirasida yillik ichki sayohatlarni tashkil etish, bu xarajatlarning bir qismini ish beruvchilar tomonidan moliyalashtirish amaliyoti joriy etildi. Dastur ijrosi uchun Madaniyat va turizm vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi hamda viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari mas'ul etib belgilandi.

Shuningdek, "Eski shahar" turizm zonasini tashkil etish, "Turizm mahallasi", "Turizm qishlog'i" va "Turizm ovuli" maqomiga ega hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari berish, oilaviy mehmon uylarini rekonstruksiya qilish, ularni mebel va texnika bilan jihozlash, suzish havzalari barpo etish uchun 100–200 million so'mgacha imtiyozli kreditlar ajratish mexanizmi yo'lga qo'yildi.

2024-yil 1-dekabrga qadar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, o'rmon xo'jaliklari bilan hamkorlikda ov turizmini rivojlantirish bo'yicha tegishli infratuzilmalarni yaratish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Bu chora-tadbirlar ichki turizmga yangi yo'nalishlarning shakllanishiga zamin yaratmoqda.

Bundan tashqari, Turizm qo'mitasi zamonaviy sayyohlik standartlarini ishlab chiqmoqda. Jumladan, "Sarguzasht turizmi" bo'yicha xavfsizlikni boshqarish tizimlari, talablar va standartlar ishlab chiqildi.

Shular qatorida faol va ekstremal turizm yo'nalishi O'zbekistonda jadal rivojlanmoqda. Parashyutdan sakrash, alpinizm, rafting kabi mashg'ulotlar yoshlar va o'rta yoshlilar orasida ommalashgan. Ekstremal turizm ko'plab turlarni o'z ichiga olib, qatnashuvchilardan jismoniy tayyorgarlik, tajriba va maxsus uskunalarni talab etadi. Bu nafaqat dam olish, balki iqtisodiy salohiyatga ega biznes yo'nalishidir.

Ishbilarmonlik yoki biznes turizmi ham dolzarb bo'lib, MICE (Meetings, Incentives, Conferences, Exhibitions) formati asosida xizmat safarlarini tashkil etishni nazarda tutadi. WTTC ma'lumotlariga ko'ra, global biznes turizmi bozori 2026-yilga kelib 1,658 trillion dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. GBTA hisobotiga ko'ra, eng katta xarajatlar Osiyo-Tinch okeani, G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikaga to'g'ri keladi. Xitoy, Hindiston va Rossiya biznes sayohatlari bo'yicha o'sish sur'atlari yuqori bo'lgan davlatlar sirasiga kiradi.

Gastronomik turizm ham zamonaviy ichki turizmning muhim turlaridan biri sifatida shakllanmoqda. U mahalliy taomlarni tatib ko'rish, milliy oshxona madaniyati bilan tanishish orqali sayyohlarda yangi taassurotlar uyg'otadi. Gastro-turlar restorandagi ovqatlanish bilan cheklanmasdan, bozorlar, dehqon xo'jaliklari, ko'cha savdolari va madaniy festivallarni ham o'z ichiga oladi.

Yuqorida keltirilgan islohot va tashabbuslar O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda ustuvor yo'nalishlar sifatida qaralmoqda.

Raqamlashtirish jarayonlari, rivojlangan mamlakatlardagi kabi, O'zbekistonda ham turizm sohasida jadal rivojlanmoqda. Bunga misol sifatida e-mehmon.uz dasturini keltirish mumkin. Ushbu platforma mehmonxonalar va mehmon uylari faoliyatini ancha yengillashtirib, kelgan mahalliy va xorijiy sayyohlar haqidagi ma'lumotlarni yagona reyestr orqali ro'yxatga olish imkonini beradi. Bu tizim xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi: ichki ishlar organlariga zarur ma'lumotlar uzatiladi va Davlat statistika qo'mitasiga axborot yig'ish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasida ichki turizmni rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan davlat siyosati, ayniqsa, Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan huquqiy hujjatlar, ushbu yo'nalishning strategik ahamiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. 2018–2024 yillar oralig'ida qabul qilingan farmon va qarorlar, jumladan, "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturi, ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish, zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish, soliq va kredit imtiyozlari kiritish orqali sohaga turtki berdi.

Ichki turizmni rag'batlantirish orqali aholi bandligini ta'minlash, milliy madaniyat va gastronomiyaning targ'iboti, ekstremal va biznes turizmi kabi yangi yo'nalishlarning shakllanishi, iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biriga aylanyapti. Ayniqsa, raqamlashtirish jarayonlari – e-mehmon.uz kabi elektron tizimlar joriy etilishi, xizmatlar sifatini yaxshilash va xavfsizlikni ta'minlashda muhim vosita bo'lmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda xalqaro tajriba va zamonaviy turizm formatlari – MICE, agro va gastro-turlar, sarguzasht turizmi yo'nalishlarini keng tatbiq etish orqali nafaqat mahalliy aholining sayohatga bo'lgan qiziqishini oshirish, balki milliy iqtisodiyotga qo'shimcha daromad manbalarini shakllantirish mumkin bo'lmoqda.

Kelgusida ichki turizmni yanada rivojlantirish uchun ilmiy-uslubiy yondashuvlarni chuqurlashtirish, hududiy resurslardan oqilona foydalanish, mahalliy aholini jarayonga faol jalb qilish va marketing strategiyalarini kuchaytirish zarur bo'ladi. Shu asosda, ichki turizm O'zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasida ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 12 yanvardagi PF 9 sonli Respublikara xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2024.

2. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi ma'lumoti. – 2016–2023 yillar statistikasi.

3. Goeldner C R, Ritchie J R B. Tourism Principles Practices Philosophies. – New Jersey: Wiley, 2009. OECD. Rebuilding Tourism for the Future COVID 19 Policy Responses and Recovery. – 2020. – URL: <https://www.oecd.org/coronavirus/policy-responses/> (дата обращения: 05.06.2025).

4. Eshtaev A. A. Turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi. – Toshkent: Fan, 2011. – 280 b.
5. Norchayev A. N., Adilova Z. D., Aliyeva M. T., Khursandov K. M. Turizm menejmenti O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDIU, 2011. – 116 b.
6. Abdurahmonov K. Kh. Menejment turizma Uchebnoe posobie. – Toshkent: Filial REU im G V Plekhanova, 2013.
7. Aleksandrova A. Yu. Mezhdunarodnyi turizm. – Moskva: Aspekt Press, 2001. – 12 s.
8. Nasridinovna T. O. Turizm sanoatida raqobatbardoshlikni oshirish va strategik yondashuvlar // Raqamli iqtisodiyot. – 2025. – № 10. – B. 1405–1412.
9. Nasridinovna T. O. Methods of Assessing the Competitiveness of Entrepreneurial Activity in Tourism Enterprises // Gospodarka i Innowacje. – 2024. – № 46. – P. 590–594.
10. Nasridinovna T. O., Mirzabahrom M. Innovative Reforms and Economic Strategies in the Development of Domestic Tourism in Uzbekistan // Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences. – 2024. – Vol. 3, № 4. – P. 10–17.
11. Teshabayeva O., Rakhmanova G. Statistical insights and policy directions for sustainable tourism in Uzbekistan // Conference of Modern Science and Pedagogy. – 2025. – Vol. 1, № 1. – P. 170–176.
12. Nasridinovna T. O., Shukurjon G. O. Turizmning atrof muhitga ta’siri muammolar va barqaror rivojlanish yo‘nalishlari // Conference of Modern Science and Pedagogy. – 2025. – Vol. 1, № 1. – P. 216–223.